NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA INSON QADRI

Saipova Mavjuda Karimdjanovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti
ORCID ID: 0009-0006-5860-7448

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy merosni chuqur o'rganish, uni yoshlar tarbiyasi va ilmiy tafakkur rivoji bilan uyg'unlashtirish hamda ma'rifatparvarlik qadriyatlarining ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida Fazl ibn Ahmad g'oyalari asosida yoshlarni ma'nan barkamol, ruhan yetuk insonlar etib tarbiyalash va ularning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish masalalari yoritilgan. Bugungi kunda Fazl ibn Ahmadning «Iddat ul-uqul va umdat ul-ma'qul» («Aqllarning va'dasi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi») risolasidan samarali foydalanishning ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat farovonligini ta'minlash hamda inson ehtiyojlarini qondirishdagi ustuvor ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Islom, axloq, tana, ruh, ijtimoiy ilm, taraqqiyot, inson, dialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy, milliy va umuminsoniy manfaatlar, progressiv taraqqiyot, axloqiy qadriyatlar, estetik, siyosiy, huquqiy, demokratik.*

ЧЕЛОВЕЧЕСКОЕ ДОСТОИНСТВО В УЧЕНИИ ФАЗЛА ИБН АХМАДА

Аннотация: В статье анализируется значение глубокого изучения духовного наследия в процессе построения Нового Узбекистана, его интеграции в воспитание молодёжи и развитие научного мышления, а также роль просветительских ценностей. Освещаются вопросы воспитания духовно зрелой и нравственно совершенной молодёжи на основе идей Фазла ибн Ахмада, а также повышения её духовного потенциала в процессе построения Нового Узбекистана. Раскрывается приоритетное значение эффективного использования трактата Фазла ибн Ахмада «Иддат ул-укӯл ва умдат ул-маъкӯл» («Основа разума и опора разумного») для обеспечения социального прогресса, благополучия общества и удовлетворения потребностей человека.

Ключевые слова: *ислам, нравственность, тело, дух, социальное развитие, человек, диалектика, синергетика, детерминизм, духовные, национальные и общечеловеческие ценности, прогрессивное развитие, моральные ценности, эстетика, политика, право, демократия.*

HUMAN DIGNITY IN THE TEACHINGS OF FAZL IBN AHMAD

Abstract: This article analyzes the importance of in-depth study of spiritual heritage in building New Uzbekistan, integrating it into youth education and the development of scientific thinking, as well as the significance of enlightenment values. It also examines the issues of educating spiritually mature and morally well-rounded young people based on the ideas of Fazl ibn Ahmad and enhancing their spiritual potential in the process of building New Uzbekistan. The article highlights the importance of effectively utilizing Fazl ibn Ahmad's treatise «Iddat ul-Uqul wa Umdat ul-Ma'qul» («The Foundation of Intellect and the Support of Reasonable Thought») in promoting social progress, ensuring societal well-being, and meeting human needs.

Keywords: *Islam, morality, body, soul, social development, human being, dialectics, synergetics, determinism, spiritual, national and universal values, progressive development, moral values, aesthetics, politics, law, democracy.*

Kirish.

Jahon ilm-fani, ilmiy markazlarida o'rta asr musulmon Sharqida faoliyat ko'rsatgan mutakallim, muhaddis, mutasavvif, mutakallimlarning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-tasavvufiy merosini hozirgi davr muammolari bilan qiyoslagan holda fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Inson aqli va ilmning jamiyatdagi o'rni, ma'naviyatning ijtimoiy barqarorlikdagi roli, ezgulik va adolatning inson tabiatidagi asoslari Sharq falsafasining muhim xususiyatlarini ifaoda etadi. Shu sababli Fazl ibn Ahmadning «Iddat ul uqul va umdat ul ma'qul» (Aqllar uchun vosita va aqliy haqiqatlar uchun asos) risolasidagi falsafiy konsepsiyalarni zamonaviy metodologik yondashuvlar orqali o'rganish, yoshlarni kamolotga erishishga oid g'oyalarining jamiyatni taraqqiy etishidagi ahamiyatini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy merosni chuqur o'rganish, uni yoshlar tarbiyasi va ilmiy tafakkur rivoji bilan uyg'unlashtirish, tafakkur mustaqilligini mustahkamlash hamda ma'rifatparvarlik qadriyatlarini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Turli davrlarda yashagan alloma va mutafakkir ajdodlarimiz har qanday qiyinchilik va sinovlarga qaramasdan, ilm-fanni taraqqiy ettirish yo'lidagi o'z burchiga, gumanizm va ma'rifatparvarlik g'oyalariga hamisha sodiq qolib, tom ma'noda ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatganlar. Afsuski, taqdir taqozosi bilan xalqimiz uzoq yillarimiz merosidan yetarlicha bahramand bo'lolmadi. Biz vaqtida ota-bobolarimiz qo'l urgan kashfiyotlarni davom ettirib, ularni takomiliga yetkazmadik. Yevropalik olimlar bizning o'lkamizda zuvalasi qorilgan ilmlarni qizg'in o'rganib, olamshumul

yutuqlarga erishgani ham ayni haqiqatdir. Bugun ana shu xatolardan kerakli xulosalar chiqarib, ilm-fanga rag‘batimizni oshirishimiz lozim»[1]. Shu bois Yangi O‘zbekiston yoshlarini barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishishlarida Fazl ibn Ahmad ta’limotida ilgari surilgan nafsni tarbiyalash, ilm-ma’rifatli bo‘lish, tahdid va xavflardan ogoh bo‘ish kabi g‘oyalarning manbaviy asos sifatidagi imkoniyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Адабиётлар таҳлили ва методология

Fazl Ibn Ahmadning katta ilm sohibi bo‘lgan, uning shogirdlari qoldirgan manbalar, o‘zi yozgan, borliqning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga bag‘ishlangan risolasi buni tasdiqlab turibdi[2]. Fazl ibn Ahmad yashagan davr Saljuqiylar hukmronligi, ya’ni XI asr oxiri – XII asr boshlariga to‘g‘ri keladi. XIII asrda yashagan Bog‘dodlik arab tarixchi va biograf olim Ibn al-Futiy «Talhis ma’rifat al-rij’al»[3] kitobida o‘z davrining mashhur olimlari, yozuvchilari va muhim shaxslarining tarjimai hollarini bayon qilib, Fazl ibn Ahmad tarjimai holi haqida quyidagi ma’lumotni keltiradi: «Shu Xalafdan bir kishi paydo bo‘lgan, ya’ni Muhammad, u ehtimolan hijriy beshinchi asrning boshlarida hayot kechirgan. Men taxmin qilamanki, Ahmad ibn Xalaf Muhammad ibn Xalafning kichik ukasi bo‘lishi mumkin va u ham shu asrda yashagan»[4]. Bu taxminga ko‘ra, Fazl ibn Ahmad, Ahmad ibn Xalafning farzandi bo‘lishi mumkin va u ilmli oiladan bo‘lgan, bu oila mantiq va fikrga asoslangan ilmlar bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Fazl ibn Ahmad ilmiy merosi va Buxorolik sulolaga mansubligi haqida Ibn Sinoyi Balxiy ham: «…har holda, bu taxmin yozuvchining shaxsiy fikridir va shu taxminga asoslanib, men Fazl ibn Ahmad ibn Xalfni Buxoroga mansub deb hisobladim»[5], -deb keltirib o‘tgan. Shu bilan birga, «Hozirgi risolalar to‘plami»ning qo‘lyozma nusxasidagi ma’lumotlar va ishoralar, shuningdek, yozish usullari va ularning nazariy tuzilishi, Fazl ibn Ahmad ibn Xalfning Xurosondan va beshinchi asrning birinchi yarmidagi odamlardan bo‘lganini tasdiqlaydi.

Dissertant fikricha, XI-XII asrdagi ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy voqeyliklar haqidagi ma’lumotlar uch, to‘rtta shoir va olimlar ijodida namoyon bo‘lishi o‘sha davrdagi islohotlarni ko‘rsatish uchun yetarli emasligidan dalolat beradi. Chunki, Fazl ibn Ahmad va shunga o‘xshagan allomalarning jahon ilm faniga qo‘shgan hissasini keng xalq ommasiga tanishtirish hamda ularning g‘oyalarini zamonamiz yoshlarining kamolotiga ta’sir qiladigan ta’limoti bilan tanishtirsh muhim ahamiyat kasb etadi.

پس از سدهٔ نهم نیز که تدبیر صفویان اقتضا می کرد هنرورزان و سخنوران و اهل حرفه و پیشه و اصناف بازار خراسانی و غیر خراسانی - از هرات، بعضا به شبه قاره هند کوچیدند و زبان و فرهنگ خاورانی را به آن دیار بردند و شکوفا کردند و عده ای به آسیا میانه و ترکستان رفتند و خانهٔ وجودشان را - که زبان و فرهنگ خاورانی بود - عمارت کردند و بسیاری نیز به تبریز و اصفهان کوچانده شدند و مصادیق زبان و فرهنگ خاورانی را در آن جایها گسترانیدند و حتی به سوی آسیا صغیر روانه شدند و چیزی را که با بهاء ولد و محقق ترمذی و مولوی بلخی به آنجا رفته بود روایی بیشتر بخشیدند.[6]

Mazmuni: XII asrdan keyin olimlar, shoirlar, hunarmandlar va turli kasb egalari Hirotdan Hind qit’asiga ko‘chib o‘tdilar. Ular ilm-fan va madaniyatni o‘sha yurtlarga olib borib, uni rivojlantiradilar. Ba’zilari O‘rta Osiyo va Turkistonga borib, ilm-fan va madaniyatga asoslangan o‘z «borliq uylarini» barpo qiladilar. Ko‘plari Tabriz va Isfahonga ko‘chib o‘tdib u yerda ham ilm-fan rivojiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Hatto kichik Osiyoga borib, avval Bahouddin Valad, Muhaqqiq Termiziy va Jaloliddin Balxiy tomonidan islomiy ilmlarni rivojiga keng imkoniyat yaratdilar. Ba’zi ta’limotlarda mutakallim «Hakim», «al-Hakim al-Fozil» (ya’ni, fazilatli donishmand) sifatida tilga olingan.

XI asrning oxiri XII asrning boshlarida Xurosonda ma’naviyat, ilm, falsafa, she’riyat va madaniyat rivojlangan. Diniy ulamolar, faylasuf va tarixchilar, muhandis va mutakallimlar beshigi bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan ham Fazl ibn Ahmadni uyg‘onish davrining namoyondasi sifatida ta’kidlash mumkin. Xuroson madaniyati mo‘g‘ullar istilosi bilan tugamadi, balki o‘zgardi, moslashdi va yangi shakllarda davom etdi. Tarixni faqat vayronaliklar orqali ko‘rish – madaniyatning tiriklik tabiatini unutishdir. Mo‘g‘ullar istilosi Xuroson uchun og‘ir sinov bo‘lgan, ammo u bu sinovdan o‘tib, yangi davrga o‘z ruhiy va madaniy yukini olib kirgan. Saljuqiylar davlatida ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori bo‘lgan. Nishopur, Isfahon, Basra, Hirot, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod qilingan. Xususan, 1067-yilda Nizomulmulk qurdirgan Bag‘doddagi Nizomiya madrasasi butun jahonga mashhur bo‘lgan. Nizomulmulk davlatni boshqarish asoslari haqida «Siyosatnoma» asarini yaratgan. Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Umar Xayyom fors she’riyatining so‘nmas durdonalarini yaratishgan. Muhammad G‘azzoliy, Fariduddin Attor, Xoja Yusuf Hamadoniy kabi islom ulamolari va so‘fiylar ijod qilishgan.

Natijalar.

Dissertant fikricha, Fazl ibn Ahmadning risolasidagi eng muhim jihatlaridan biri – muammolarni ilgari surish va ularni tahlil qilishda ilmiy uslub va tajribaga tayanganidir. Mutakallim mavjud bilimlarni tahlil qilishda ilmiy-metodologik yondashuvga e’tibor bergan. Ayniqsa, falsafa va kalom ilmidagi murakkab masalalarni faqat aqliy va falsafiy uslubda emas, balki diniy, huquqiy va tarixiy asoslar bilan ham yoritgan. Fazl ibn Ahmadning ilmiy yondashuvi unga turli fikrlar va ilmiy maktablar orasidagi tafovutlarni anglash imkonini bergan. Ayniqsa, «Iddat ul uqul» risolasi quyidagi fikrni keltiradi: «Mening fikrimcha, agar biron bir fikr, nazariya yoki xulosa aqlga va mantiqqa to‘g‘ri kelmasa, u hukm nuqtayi nazaridan

[1] Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024. -Б.31.

[2] فضل بن احمد بن خلف بخاري. عدةالعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد, چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371ه.ش-1993م. 18ص

[3] Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн ал-Футий. “Талҳис маърифат ал-рижъал”// Нажиб Мойил Ҳаравий тарж. - Машҳад, Остон Кудс Ризавий, 1993. – Б. 37.

[4] Fazl ibn Ahmad “Iddat al-uqul va umdat ul-ma’qul”. - Mashhad, Oston Quds Rizaviy, 1993. - B. 20.

[5] Fazl ibn Ahmad “Iddat al-uqul va umdat ul-ma’qul”. - Mashhad, Oston Quds Rizaviy, 1993. - B. 21.

[6] فضل بن احمد بن خلف بخاري. عدةالعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد, چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371ه.ش-1993م. 19ص

maqbul bo‘lmasligi mumkin»[7]. Mutakallim har bir fikrga, ayniqsa diniy yoki falsafiy bahslarga nafaqat aqliy, balki axloqiy, ijtimoiy va ruhiy jihatdan ham yondashgan. Bu jihat Fazl ibn Ahmadni o‘z davridagi mutakallimlardan ajratib turadi.

Tadqiqotda Fazl ibn Ahmad o‘rta asr uyg‘onish davrida kalomiy ilmlarni tushungan va ularni o‘zlashtirgani, G‘azzoliy (vaf. 505) va Shahrastoniy (vaf. 548) singari kalom va falsafa namoyandalari bilan zamondosh bo‘lganligi qayd etiladi. Mutakallim «Iddat ul-uqul» risolasida Allohning yagonaligi, olamning boshlanishi va oxirat haqidagi mavzularni mantiqiy-falsafiy dalillar orqali tushuntirgani mutakallimning o‘sha davr kalomiy-falsafiy metodlarni puxta bilganidan dalolat beradi. Risola nafaqat diniy muhokama, balki mantiqiy va falsafiy tafakkur namunasidir. Bu esa u yashagan davrda kalom ilmi qanday chuqurlashganini, qanday usullar bilan boyiganini ko‘rsatadi.

Mutasavvif falsafani to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmaydi, balki shariat qonunlari asosida uning qaysi jihatlari to‘g‘ri, qaysilari noto‘g‘ri ekanini ajratib ko‘rsatgan. U quyidagi uch bosqich asosida falsafiy muammolarni ochib bergan:

Xulosa

Fazl ibn Ahmadning «Iddat ul Uqul» risolasi Sharq tafakkurining eng yuksak davrida yaratilgan bo‘lib, unda inson, aql, nur, nafs va komillik masalalari falsafiy, axloqiy va ma’naviy birlikda talqin etilgan. Mutafakkirning ilmiy qarashlarini nafaqat tarixiy-falsafiy manba sifatida, balki zamonaviy falsafaning asosiy ontologik, gnoseologik va aksiologik tamoyillari nuqtayi nazaridan tadqiq etish asosida, u yaratgan falsafiy tizim inson tafakkurining o‘z-o‘zini anglash jarayonida aql, ilm va hikmatning tutgan o‘rnini belgilaydi, - deyish asosli. Fazl ibn Ahmad ma’naviy merosining ahamiyatini ochib berish hamda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi o‘rnini tadqiq etish asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelingan: Fazl ibn Ahmadning ma’naviy merosi yosh avlodni ma’nan yetuk, axloqan barkamol va intellektual salohiyatli shaxs etib tarbiyalashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning qarashlarini chuqur o‘rganish yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Fazl ibn Ahmadning «Iddat ul-uqul va umdat ul-ma’qul» risolasidagi g‘oyalarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish inson aqli, tafakkuri, axloqi va ma’naviy kamoloti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashga yordam beradi. Mazkur merosdan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yoshlarning bilim olishga intilishi, mantiqiy mushohada yuritishi va oqilona qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Allomaning ma’naviy merosini zamonaviy ta’lim-tarbiya tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish yoshlar ongida ezgulik, adolat, mas’uliyat, halollik va insonparvarlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu jarayonda tarixiy-ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy bilimlar bilan integratsiyalash yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshirishga imkon yaratadi. Fazl ibn Ahmad merosini o‘rganish va targ‘ib etish mexanizmlarini takomillashtirish ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, alloma asarlarini ta’lim dasturlariga integratsiyalash, ular asosida ilmiy-tadqiqotlar olib borish, elektron ta’lim resurslari va ma’rifiy materiallar yaratish yosh avlodning tarixiy xotirasi hamda ma’naviy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida Fazl ibn Ahmadning ma’naviy merosidan samarali foydalanish milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni kelajak avlodga yetkazish bilan bir qatorda, jamiyatda inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy hamjihatlik va ma’rifatparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu jihatdan, alloma merosini zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari bilan uyg‘un holda o‘rganish barkamol avlodni tarbiyalashning muhim ma’naviy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.

2. Комилов Н. Тасаввуф. II китоб. Тавҳид асрори. –Тошкент.: Ўзбекистон – Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1999.

3. Холмўминов Ж. Тасаввуф онтологияси. –Тошкент: Yosh avlod matbaa.

4. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. - Тошкент.: Шарқ. 2003.

5.Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон. -Тошкент.: Адолат. 2001.

6. فضل بن احمد بن خلف بخاري. عدةالعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد, چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371ه.ش- 1993م. 41ص

7. فضل بن احمد بن خلف بخاري. عدةالعقول و عمدة المعقول في ايضاح مباني الاصول. مشهد, چاپ موسسه چاپ و انتشارات آستان قدس رضوی. 1371ه.ش- 1993م. 41ص

8. Ғаззолий, Абу Ҳомид. Мушкот ул-анвор. –Қоҳира, 1961. –Б.51.

9. ----------

[7] Фазл ибн Аҳмад “Иддат ал-уқул ва умдат ул-маъқул”. - Машҳад, Остон Қудс Ризавий, 1993. - Б. 21.